

QASHQADARYO VOHASI TARIXINI O'RGANISHDA R.X.SULAYMONOVNING O'RNI

Ashurov Sardor Ibragim o'g'li

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix fanlari doktori, professor Rustam Hamidovich Sulaymonovning ilm-yo'li, ilmiy faoliyati, Qashqadaryo vohasinin o'rganishda tutgan o'rne, Yerqo'rg'on tarixiy yodgorligini o'rganishdagi faoliyati haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: R.H.Sulaymonov, arxeologiya, tarix, Yerqo'rg'on, Naxshab, tarixiy-madaniy qatlam, tarixiy Yoshi, ilmiy faoliyat, ilmiy maktab

Аннотация: В данной статье представлены сведения о пути познания, научной деятельности доктора исторических наук, профессора Сулайманова Рустама Хамидовича, роли Кашкадарьинского оазиса в изучении Еркурганского исторического памятника.

Ключевые слова: Р.Х.Сулайманов, археология, история, Еркурган, Нахаб, историко-культурный слой, историческая эпоха, научная деятельность, научная школа

Abstract: In this article, information is given about the path of science and scientific activity of the Doctor of History, Professor Rustam Hamidovich Sulaimanov, the role of the Kashkadarya oasis in the study, and the activity in the study of the Yerkurgan historical monument.

Key words: R.H. Sulaimanov, archeology, history, Yerkurgan, Nakhab, historical-cultural layer, historical Age, scientific activity, scientific school

Qashqadaryo vohasi o'tmishda O'rta Osiyo sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri hisoblangan[1, 3]. Bu hudud Samarqand va Buxoro vohalari bilan bir qatorda qadimgi So'g'diyona mamlakatining katta hududi bo'lib, janubda qadimgi Baqtriya bilan chegaradosh bo'lgan[1,4]. Bu tarixiy geografik hududda miloddan avvalgi mingyilliklarda vujudga kelgan, yoshi jahonning eng qadimgi manzillari bilan bo'ylashadigan shaharlar bor. Shahrisabz va Qarshi ana shunday shaharlardandir. Shahrisabz va Qarshining 2700 yillik yubileylari nishonlanishi va ularning ulug' yoshi jahon miqyosida tan olinib, hukumatimiz qaroriga muvofiq bayram sifatida tantana qilingani fikrimizning yorqin isbotidir[2].

Qashqadaryo vohasi tarixini o'rganishga juda ko'plab olimlarimiz o'z hissalarini qo'shganlar. Jumladan, V.A.Shishkin, S.K.Kabanov, M.Y.Masson, N.I.Krashenkova, G.V.Shishkina, M.I.Filanovich, A.R.Muhammadjonov, R.X.Sulaymonov, P.Valiyev,

X.Duke, M.Isomiddinov, Z.I.Usmanova, A.S.Sagdullayev, N.I.Krashenkova, Sh.T.Odilov, O.N.Lukashenko va boshqa olimlar shular jumlasidandir.

Bu olimlar orasda R.X.Sulaymonovning xizmatlarini alohida e'tirof etish kerak. O'rta Osiyo xalqlari tarixi va madaniyatini o'rganishda o'zining juda katta

mehnatini sarflagan Rustam Hamidovich Sulaymonov 1939-yil 30-mayda Toshkent shahrida o'qimishli intelligentlar oilasi: mashhur adabiyotshunos olimlar - Xamid Sulaymonovich Sulaymonov va Fozila Sulaymonovalar oilasida tavallud topdi[3,4]. Yoshlik yillari urush va urushdan keyingi qiyinchilik yillariga, Stalin tomonidan uyushtirilgan repressiyalar davriga to'g'ri keldi. 1957-yilda o'rta maktabni tugallagandan keyin Toshkent Davlat universitetining tarix fakultetiga o'qishga kirgan hamda uni 1962-yilda imtiyozli diplom bilan tugalladi. O'sha yillarda tarix fakulteti Arxeologiya kafedrasini O'rta Osiyo arxeologiyasini asoschilaridan biri M.E.Masson boshqarar edi. Studentlik yillari M.E.Masson tomonidan o'qilgan maruzalarni tinglab tarix, san'atshunoslik va ayniqsa arxeologiya fanining o'lkan salohiyatini to'liq tushunib etdi.

R.H.Sulaymonov o'zining ilmiy faoliyatini 1961-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya institutida boshladi. 1961-1962-yillarda Y.G'.G'ulomov boshchilik Buxoro arxeologik dala ekspeditsiyalarda qatnashdi va arxeologiya faniga bo'lgan qiziqishi yanada ortdi. R.H.Sulaymonovning kelgusida yirik paleolitshunos olim bo'lib yetishishida uni mashhur antropolog olim M.M.Gerasimov bilan tanishishi juda katta rol o'ynadi.

R.H.Sulaymonov arxeologiya tarixida birinchilardan bo'lib tosh qurollarini ilmiy o'rganishni uslublarini rivojlantirib, uni o'rganishni matematik uslublarini qo'lladi va bu bilan ilmiy-uslubiy g'oyalar bilan arxeologiyani nazariy qismlarini ham rivojlantirish imkoniyati tug'ildi. Uning bu g'oyalari **“Статистическое изучение культуры гота Обирахмат”** mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasi sifatida 1968-yilda yoqlandi[4,15] va o'sha davrda jahon olimlari orasida yakdillik bilan ma'qullandi.

R.H.Sulaymonovning o'sha davrdagi qilgan yirik ishini SSSR Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti Leningrad bo'limining mudiri V.P.Boriskovskiyning quyidagi so'zlari diqqatga sazovordir: - “Butun jahon va sovet fani paleolit davri qazishmalari va tosh qurollarini o'rganish uslublarini Frantsiyadan o'rganar edi. Ammo R.H.Sulaymonovning monografiyasi chop etilgandan keyin sovet fani fransuzlarni o'n yilga orqada qoldirib ketdi” - degan edi. Bu maqto'v so'zlari bo'rttirilgan emas, balki R.H.Sulaymonovga nisbatan aytilgan iliq samimiy so'zlar edi. Haqiqatdan ham R.H.Sulaymonov o'sha davr uchun mutlaqo yangi bo'lgan va ilmiy jamoatchilik tomonidan maqullangan tosh davri qurollari industriyasini matematik usullar bilan o'rganish usullarini ishlab chiqqan edi. 1970-yilda Samarqandda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Arxeologiya instituti ochilgandan keyin R.H.Sulaymonovga yangi

yo'nalish, qadimgi va antik davri arxeologiyasini rivojlantirib berish vazifasi yuklanadi. Natijada R.H.Sulaymonov Qashqadaryo va Buxoro vohalarida keng miqyosdagi arxeologik qazishmalarni o'rganishni boshlaydi. Uning ijodini asosiy va katta qismini Qarshi vohasidagi Yerqo'rg'on yodgorligida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari egallab, bu shaharning strukturasi, stratigrafik qatlamlari, moddiy madaniyati, o'sha davr aholisining hunarmandchiligi, dehqonchiligi, ilohiy tushunchalari egallaydi. 1984-yilda "Еркурган, стратиграфия и периодизация" deb nomlangan monoqrafiyasi chop etilgan. Olim ilm-fan rivojida eng og'ir, murakkab bo'lgan 1980-1995-yillar oralig'ida murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarda ham dala tadqiqotlarini moliyalashtirish uchun imkoniyat topa bildi va o'zi ko'zlagan nodir antik Naxshab arxeologiyasini yaratishni va uni nihoyasiga yetkazishga erisha olgan.

1998-yilda olim tarix fanlari doktori dissertatsiyasi ishini "Древняя культура Южного Согда" mavzusida arxeologiya ixtisosligi bo'yicha himoya qilgan.

2001-yilda R.Sulaymonov O'zMU Tarix fakulteti arxeologiya kafedrasida negizida qashqadaryo vodiysidagi tosh mumi yodgorliklarini o'rganish maqsadida Zarafshon tizmasining janubiy yon bag'irlarida qidirub ishlarini boshladi. Izlanishlar davomida bu yerda 2 ta obyekt topilgan bo'lib, ulardan birining nomi Karakamar, ikkinchisining nomi esa Angilak. Dastlabki o'rganishlar paleolit davrining madaniy konlari mavjudligini ko'rsatdi.

Kesh me'moriy yodgorliklari Amir Temur tavalludining 660-yilligini xalqaro nishonlash kunlarida yetakchi obyektlar qatoriga kiritildi. Keshdagi arxeologik yodgorliklar esa YUNESKO tomonidan Shahrisabz shahar madaniyatining 2700 yilligini belgilashga asos bo'ldi. R.Sulaymonovning samarali mehnatlari natijasida 2004-yilda YUNESKO va O'zbekiston hukumatlari o'rtasida Qarshi shahrining 2700 yilligini nishonlash to'g'risida qaror qabul qilindi[5]. 2006-yil oktyabr oyida qarshi shahrining 2700 yillik yubeliyi munosabati bilan xalqaro anjuman o'tkazildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, R.X.Sulaymonovning Qashqadaryo vohasi tarixi bo'yicha qilgan ilmiy tadqiqotlari natijasida Qarshi shahrining 2700 yillik yoshi o'zining ilmiy asosiga ega bo'ldi.

Hozirgi kunda R.X.Sulaymonov O'zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti Arxeologiya kafedrasida talabalarga tarix fani sir-asrorlarini o'rgatmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. М.Х.Исамиддинов Р.Х.Сулейманов. Еркурган (Стратиграфия и периодизация). Ташкент Издательство <<ФАН>> Узбекской ССР. 1984. Б-162
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 29-sentyabrdagi "Qarshi shahrining 2700-yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida"gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 26-

iyuldagi "Qarshi shahrining 2700-yilligini nishonlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, <https://lex.uz/docs/-1677083>

3. Рустам Хамидович Сулейманов. Библиография. Тошкент: 2024. 44-б.
4. ИЛМУ ФАНГА БАХШИДА УМР [матн] – Тошкент "Renessans press" нашриёти, 2024./-56 б.
5. <https://lex.uz/docs/-1677083>,